



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN VILOYATI XALQ TA'LIM
BOSHQARMASI**

**POP TUMANI XALQ TA'LIMI MUASSASALARINI
FAOLIYATINI METODIK TA'MINLASH VA TASHKIL
ETISH BO`LIMIGA QARASHLI**

№64-SONLI UMUMIY O`RTA TA'LIM MAKTABI

**Milliy istiqlol g`oyasi va ma'naviyat
asoslari" FANI O`QITUVCHISI**

Hoshimova Xurshidaning

6-sinflar uchun

OCHIQ DARS

ISHLANMASI

Mazkur dars ishlanma umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf "Jahon tarixi" fanidan Davlat ta'lim standartlari va o'quv mavzu rejasi asosida tayyorlangan. Undan dars mashg'ulotlarida, "Yosh tarixchi" to'garagida hamda iqtidorli o'quvchilarni bilimlar sinoviga tayyorlashda foydalanish tavsiya etiladi.

Muallif: Hoshimova Xurshidan

-Pop tuman Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 64-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi

Taqrizchi:

M.Tursunova-Pop tuman Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi Tarix fani uslubchisi

X.Abdurahmonova-Pop tuman Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi

Mazkur dars ishlanma Pop tuman 64-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi _____ fanlar uslub birlashmasining 20__-yil _____dagi ____-sonli qarori bilan hamda Pop tuman XTMFMTTE bo'limi metodika kengashining 20__-yil _____dagi №____-sonli qarori bilan foydalanishga tavsiya etildi.

6-sinf „Vatan tuyg`usi” 11-ДИМИ

Mavzu: O`zbekiston milliy bog`i.
Darsning texnologik xaritasi.

Mavzu.	O`zbekiston milliy bog`i.
Maqsad va vazifalar	Maqsad:Bog` haqida tushuncha berish va O`zbekiston milliy bog`i to`g`risida batafsil ma`lumot berish. Vazifalar: O`quvchilarning vatanimizning ulkan milliy madaniy va ma`naviy boyliklari bilan tanishtirish va ularni vatanimizga bo`lgan mehrini uyg`otishga undash.Hususan O`zbekiston milliy bog`i mavzu bo'yicha o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompeten- siyalarga ega bo'lishi. O'quvchilar mavzuning mazmun- mohiyatini o'zlashtiradilar. Mavzuga oid topshiriqlarni yakka va guruh, holatda o'rganib o'zlashtirishga erishadilar. O'quvchilarning yangi mavzuni qay darajada o'zlashtirganligi, nazorat qilinadi, ularning bilimi baholanadi.
O`quv jarayonining maqsadi.	Ta'limiy maqsad: O'quvchilarning, O`zbekiston milliy bog`i nima uchun shunday nomlanganligi va qanday tarzida tuzilganligi, tashkil topishi haqida bilimlarini orttirish, ularga bog`ning umumiy hududi, milliy bog`ning vatanimiz uchun qanday ahamiyati borligini,qay jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida ma'lumot berish. Tarbiyaviy maqsad: Boy madaniy merosga bo'lgan hurmat tuyg`ularini shakllantirish. Ma'naviyat, madaniyat, sivilizatsiya, davlatchilik »tushunchlarining yuqori pog'onalarda turishi haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish.</p> <p><b>Rivojlantiruvchi maqsad:</b> O'quvchilarning milliy bog`ga doir tushunchalarni o`rganishga oid bilim, ko`nikma, malakalarini shakllantirish. Darsning kompetensiyaviy maqsadi: O`quvchilargaO`zbekistonnimizning ulkan boy merosi bilan tanishtirish hamda ularning ma`naviy bilimlarini shakllantiriladi, ma`lumot berish orqali ularda umummadaniy, kommunikativ, o`quv- ta'limiy va axborotlashtirilgan kompetensiyalarni shakllantirish.
O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Darsning uslubi: Jismoniy mashqlar,suratli topshiriqlar,klasster,og`zaki savol-javob,maruza,sonlarni juftlashtirish,tez topqirlik moychechak metodi. Shakl: Guruhlarda ishlash. Darsning jihozi: Darslik 6-sinf uchun, “Vatan

	tuyg`usi”, Prezidentimiz asarlari, vatman qog`oz, mavzuga oid rasmlar, qo`shimcha adabiyotlar, kompyuter, video proyektor, to`p,. Darsning turi: Yangi tushunchalar berish. Nazorat: Og`zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish.</p> <p><b>Baholash:</b> Rag`batlantirish, 5 ball tizim asosida baholash.
Kutiladigan natijalar.	Barcha o`quvchilar O`zbekiston milliy bog`i haqida ma`lumotga ega bo`lish.</b></p> <p><b>O`qituvchi: O`quvchilarning faolligini oshiradi, darsga nisbatan qiziqishini paydo qiladi. Bir dars davomida barcha o`quvchilarni baholaydi. O`quvchilar tomonidan axborotlarni mustaqil o`rganish, ularni xotirasida saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savolga javob berishga o`rgatish.</p> <p><b>O`quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo`lib ishlashni o`rganadi. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. Qisqa vaqt ichida ma`lumotga ega bo`ladi va baholanadi.
Kelgusi rejarlar:	O`qituvchi:</b> Yangi pedagogik texnologiyalarni o`zlashtiradi va darsga tatbiq etib, takomillashtirishga erishadi. O`z ustida ishlaydi. Pedagogik mahoratini oshiradi.</p> <p><b>O`quvchi: O`zbekiston milliy bog`i haqida ma`lumotlarni tahlil etib, darslik matni yoki o`qituvchining ma`ruzasiga asoslangan holda mustaqil ishlashni o`rganadi, o`z fikrini ravon bayon qila oladi.

Darsning akademik vaqt bo`yicha (45 minut) taqsimoti.



1.Salomlashish.	1 minut.
2.Davomatni aniqlash.	1 minut.
3.O`tilgan mavzuni so`rash.	15 minut.
4.Yangi mavzuning bayoni.	15 minut.
5.Yangi mavzuni mustahkamlash.	10 minut.
6.Baholash.	2 minut.
7.Darsni yakunlash.	1 minut.

O`quvchilarning baholashda turli shakllardan foydalaniladi. O`quvchilarni savollarga to`g`ri va noto`g`ri javob berishlariga qarab, ushbu shakllar bilan belgilanadi.

„5“-baho.

„4“-baho.

„3“-baho.



I. Tashkiliy qism: A) Salomlashish.

B) Tozalikni tekshirish.

S) Davomatni aniqlash.

O`quvchilar bilan ushbu jarayon shakllangandan so`ng, o`qituvchi o`quvchilardan 2014-yil nomini so`raladi:

**O`quvchi** : „Sog`lom bola yili“ deb e`tirof etib “.

**O`qituvchi** : „So`z o`yinini to`p bilan harakterlantergan holda o`tkazadi.

Avval boshida o`qituvchi tomonidan so`z aytiladi. O`quvchilar tomonidan aytiladigan so`zlarni mazmuni mustaqillik ramzlarini nomi, buyuk allomalarimizni ismi - sharflari, tarixiy obidalarni nomini aytish mumkin hisoblanadi. **Masalan** o`qituvchi : Mustaqillik desa navbatma-navbat o`quvchilar so`zning oxirgi harfiga davom etirishadi. To`pni so`zni aytib bo`lishi bilanoq, orqaga qaramagan holda ikkala qo`lni yuqoriga ko`targan holda to`pni ushlab boshidan navbatdagi o`quvchiga uzatiladi. Namuna sifatida:

O`qituvchi-Mustaqillik-

O`quvchi - Konstitutsiya- Alisher Navoiy- Yurt-taraqiyot-tinchlik-komillik.

Shu tarzda davom etirilib ,oxirgi o`quvchiga qadar boriladi.So`ngra o`qituvchi ushbu o`yin mazmunini sharhlab beradi –**So`z o`yinni** o`quvchini ma`nan sog`lom bola bo`lib rivojlanishida tayanch vazifasini bajarsa,to`p esa jismonan shakllantiriladi.Demak sog`lom bola deyilganda ham ma`an,ham jismonan sog`lom sog`lom bolani tushunamiz deya izoh beriladi.Shu tarzida darsni siyosiy qismiga nazar tashlanadi ,yurtimizga tegishli kundalik siyosiy yangiliklar so`raladi.Saylov va davlatimizni boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalari haqida ma`lumot beriladi.

**Ma`naviy daqiqa:**Bunda suratli topshirqlar beriladi,ya`ni slaydimizdan foydalanamiz,slaydda mustaqilligimizni ramzlari birin –ketin chiqariladi tezkor va birinchi bo`lib qo`l ko`targan o`quvchidan so`raladi o`quvchilar ramzlarimizni qachon qabul qilinganligi va davlatimiz ahamiyati haqida qisqacha ma`lumot beriladi.Javob bergan o`quvchilar o`qituvchi tomonidan rag`batlantirilib boriladi.Ramzlarimiz quydagicha birin-ketin ekranda aks etiriladi.



MA`NAVIY DAQIQA







II. O`tilgan mavzuni so`rash : Bunda ham ekranli slayddan foydalanamiz. Buni sirli harflar metodi deb nomlanadi. Ushbu metodni ham sharhlayman „ doskada „vatan tuyg`usi” so`zi har bir harfi 1 tadan listga yoziladi. O`tilgan mavzu bo`yicha tayyor o`quvchilardan bir o`quvchi doskadagi bir harfni tanlaydi ; masalan „V” harfi ushbu harfda slaydimizda v harfi uchun tuzilgan savolga slaydimizda ko`rsatilib turgan savolga javob beriladi. Hamda o`qituvchi tomonidan doskaga yopishtirilgan Listdagi „V” harfi ochiladi va ushbu harf yozilgan listni orqasida ham yangi mavzuga doir savollar yozilgan bo`ladi.

Savollar to`plami

V harfi,

Qutlug` qadamjolar deb
nimaga aytiladi?

Savollar to'plami

A harfi.

Hazrati Imom majmuasi
qayerda joylashgan?

Savollar to'plami

T harfi.

Hazrati Imom majmuasi
qachon bunyod etilgan?

Savollar to'plami

A harfi.

Qur'on kitobi qayerda
saqlanadi?

Savollar to'plami

N harfi.

Halqaro Yunesko tashkiloti tomonidan Qur'on kitobiga sertifikat nechanchi yilda berildi?

Savollar to'plami

T harfi.

Hazrati Imom majmuasida yana qanday yodgorliklar bor?

Savollar to'plami

U harfi.

Xotira maydoni qachon bunyod etilgan?

Savollar to'plami

Y harfi.

II- jahon urushida halok
bo`lganlarning soni nechta?

Savollar to'plami

G` harfi.

Imom Buhoriy yodgorligi
qachon va qayerda bunyod
etilgan?

Savollar to'plami

U harfi.

Termiz shahrida qanday
yodgorlik mavjud?

Savollar to'plami

S harfi.

Buhiro va Samarqand
shaharlarimizda yana
qanday yodgorliklar bor?

Savollar to'plami

I harfi.

Rag`bat . Vatan haqida
she`r.

III. Yangi mavzuning bayoni.

Dars shiori :

Har bir avlod o`ziga tegishli sahifasini o`zi yozishi kerak

Dars rejasi:

- 1.O`zbekiston milliy bog`i haqida ma'lumot berish.
2. O`zbekiston milliy bog`i va Alisher Navoiyi haykali.

3.Amir Temur xiyoboni haqida.

Darsni fanlararo bog`lash:

1.Ona tili .

2.Biologiya.

3.Huquq.

4.Tarix.

5.Adabiyot.

6.Kimyo.

Yangi mavzuni atamalari:

1.Amfiteatr

2.Inqilob.

3.Xiyobon.

4. Muzey.

5.Ramz.

6.Akatsiya.

**Aziz o`quvchi** , poytaxtimiz Toshkent shaxrining markazida xalqimizning iftixori bo`lgan , ko`pchilik borib ko`rishni , sayr etishini orzu qiladigan yana bir qutulug` maskan bor . Bu - Alisher Navoiy nomidagi o`zbekiston milliy bog`idir . U mamlakatimizning eng yirik madaniyat va istirohat bog`l hisoblanadi . Uni qisqa qilib , Milliy bog` deb ham hisoblanadi .

Milliy bog` Toshkent shahrining markaziy qismida joylashgan bo`lib , 69 gektr maydonni egallaydi .

Milliy bog`



Bog` 1991- yil Alisher Navoiyning 550 yilligi sharafiga Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan bunyod etilgan . Aynan o`sha yili bu yerdagi baland tepalikka Alisher Navoiyning muazzam haykali o`rnatilgan edi .

Istiqlol sharofati bilan bog`ning o`rtasidagi hududda o`ziga hos me`moray majmua barpo etilgan . Majmua markazida favvorali aylana hovuz va amfiteatr shaklidagi tantanali marosimlar o`tadigan maydon bor .

Amfiteatrning g`arb tomoni Oliy Majlis binosi va Abulqosim madrasasi , sharq tomondan esa „Navro`z“ restorani joylashgan .


Alisher Navoiy haykalining old tarafidagi xiyobonga 2007- yili atoqli yozuvchimiz Abdulla Qahhorning , 2010 – yili esa Muso Toshmuhammad o`g`li Oybekning haykali o`rnatilgan .

Alisher Navoiy haykalining orqa tarafida esa katta ko`l bo`lib, yozning jazirama issig` kunlarida u yerda bolalar , yoshlar , kattalar cho`milib dam

olishadi . Ko`lning sohillarida turli attraksionlar , dam olish va ovqatlanish maskanlari mavjud.

Milliy bog`da terak , akatsiya , archa , qarag`ay , chinor , tut , majnuntol singari daraxtlar , anvoyi gullar uning ko`rkiga ko`rk qo`shib turadi . Bog`ning maydon va xiyobonlari , go`zal sahnalarida doimo turli qiziqarli madaniy tadbirlar , sport musabaqalari o`tkaziladi .

Temuriylar muzeyi



Ayniqsa bu yerdagi amfiteatirda har yili Navro`z va Mustaqillik bayramiga bag`ishlab o`tkaziladigan tantanali marosimlarni el - yurtimiz chet ellik mehmonlar katta qiziqish bilan tomosha qiladi . Ushbu marosimlarda Perizendtimiz Islom Karimov ishtirok etib , xalqimizning Navro`z bayrami , mustaqillik kuni bilan tabriklaydi .

IV. Mustahkamlash. 10 minut.

Savol – javob .

Yangi mavzuga savol.

Yurtboshimizning 2008-yilda chop etilgan asar nomi ?.

Javob yozish.


.....

Yangi mavzuga savol.

Yillarni aniqlash. Quydagi yillar va sonlardan bugungi yangi mavzuga doirini topib ,juftlashtiring?

1991-yil, 1989-yil, 1990-yil, 1996, 1997-yil. , 660, 550, 560, 78.

Yangi mavzuga savol. Klasster o`yinni orqali.



Ushbu mavzuga savol.

Kalit soʻzini topish.



Milliy bogʻda har yilli bahor faslida qaysi bayram tantanali nishonlanadi.

--	--	--	--	--	--

Tezkor savol-javob .

1. Alisher Navoiy bogʻi qayerda joylashgan ?.
2. Milliy bogʻimiz qayerda joylashgan ?.
3. Navroʻz bayrami qayerda oʻtkaziladi ?.
4. Yana qanday bogʻlarni bilasiz ?.
5. Temuriylar davlat muzeyi nechanchi yili barpo etilgan ?.
6. Milliy bogʻimiz nima uchun shunday nom bilan yuritilgan ?.

Oʻquvchilar ikki guruhga boʻlingan holda ushbu savollar dumaloq shakldagi tarqatma materialga yozilgan boʻladi. Oʻquvchilar tarqatma materialga javob bergandan soʻng doskadagi har bir guruhni ishtirokchisi moychechagi yasash uchun harakat qilinadi va natijada ikki xil rangdagi moychechagi hosil boʻladi.



Bundan tashqari darsimiz vatan tuyg`usi bo`lgani uchun sinfni ikki guruhga bo`lgan holda.

1-guruh „vatan haqida sher. 2-guruh esa. „vatan haqida maqol bilan har ikkala guruh jamoa a`zosi bir-birlariga javob qaytarishadi, javob qaytarolmagan guruh mag`lub sanaladi.

V.Darsni yakunlash.

Darsda qatnashgan o`quvchilarni rag`bat kartichkalarini sanagan holda shunga qarab baholar e`lon qilinadi.

VI.Vazifa. 1.Mavzuni o`qish va o`tilgan yangi mavzu yuzasidan test tuzish.

2.Vatan haqida hikoya bilib kelish.

O`qituvchi :,O`tkir Hoshimovning daftar hoshiyasidagi bitiklardagi „bog`” haqidagi rivoyat bilan darsni yakunlash.

Foydalanilgan adabiyot.

1.Karimov.I.A.- „Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch”.

„ma’naviyat nashiriyoti-T.:2008-yil.

2.6-sinf „Vatan tuyg`usi.

3.HOshimov .O`- „Daftar hoshiyasidagi bitiklar”-

Vatanimiz kelajagi , xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro`-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o`sib,ulg`ayib ,qanday inson bo`lib hayotga kirib borishiga bog`liqdir.Biz bunday o`tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.

I.A.Karimov.

Ushbu dars ishlanma xalq ta'limi bo`limiga qarashli 11- sonli Davlatixtisoslashtirilgan umumta'lim maktab internatining „Milliy istiqlol g`oyasi va ma'naviyat asoslari “ fani o`qituvchisi Hoshimova Xurshida tomonidan tayyorlangan bo`lib ,umumta'lim maktablarining „Milliy istiqlol g`oyasi va ma'naviyat asoslari “ fani o`qituvchilari uchun yaratilgan.

Muxarir - Qo`ychibekova Chinora tuman xalq ta'limining „Milliy istiqlol g`oyasi va ma'naviyat asoslari“ bo`yicha uslubchi.

Taqrizchi-Namangan viloyati Pop tumanidagi 11-D I M Ining „Milliy istiqlol g`oyasi va ma'naviyat asoslari “ fani o`qituvchisi Azimova Nilufar .

Ushbu dars ishlanma „ “ , „ “ oyida 2015-yildagi tuman xalq ta'limi metodika kengashining №- sonli qarori bilan tasdiqlanib , foydalanishga tavsiya etildi.



Namangan viloyati Pop tumanidagi 11-sonli

D I M I ning Milliy istiqlol g`oyasi va
ma`naviyat asoslari fani

O`qituvchisi Hoshimova Xurshidaning
„O`zbekiston milliy bog`i “ mavzusida

O`tilgan ochiq darsi haqidagi



B A Y O N N O M A .

Pop tumanidagi 11- D I M I da 17. 11. 2014. 6-„A “ sinfda o`tkazildi.

Qatanashdi : 35 ta o`quvchi soni.

Ochiq darsda 4 nafar fan o`qituvchilari , 3 nafar sinf tarbiyachilari qatnashdilar.

- Ilmiy bo`lim mudiri Z .I .Tyan : Dars juda yaxshi tashkil etildi.Ko`rgazmali qurollar bor , rasmlar ,tarqatmalardan unumli foydalanildi.

Har bir o`quvchilar bilan ishlanildi –deya o`z fikrlarini bayon eta oldilar.

- Tarix fani o`qituvchisi N.Azimova fikri : Xona toza , gullar bilan jihozlangan, texnika vositasidan foydalandi.Dars DTS asosida o`tildi va vaqt to`g`ri taqsimlandi.

- Ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi Sh .Otajonova fikri: Darsda o`quvchilarga milliy istiqlol g`oyasi singdirildi.Tarixiy qadamjolarga bo`lgan mehr- muhabbat shakllantirildi.Darsda ko`zlangan maqsad amalgam oshirildi.

- Uslubiy birlashma darsni „ a`lo “ deb baholadi.

Uslubiy birlashma raisi : 11- D .I .M .I . ning ona tili va dabiyot fani o`qituvchisi SH .Otajonova. „ “ .

Vatanimiz kelajagi , xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro`-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o`sib,ulg`ayib ,qanday inson bo`lib hayotga kirib borishiga bog`liqdir.Biz bunday o`tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.

Tavsifnoma.

Men Hoshimova Xurshidani 2012-yildan beri bilaman.U ish faoliyati davomida juda tirishqoq o`qituvchi sifatida ish olib boradi.

U oliy ma'lumotli ,2008-2012- yillarda TV DPI da tahsil olgan va hozirga qadar 11-DIMI da „Milliy istiqlol g`oyasi va ma'naviyat asoslari" fani o`qituvchi bo`lib ishlab kelinmoqda.Teran fikrli , mas'uliyatli pedagog . Hamkasblari orasida o`zining yaxshi fazilatlari bilan alohida hurmatga sazovar bo`lgan. U izlanuvchanligi tufayli o`quvchilarning o`z sevimli ustoziga sazovar bo`lgan.Maktabda o`tkaziladigan tarixiy tadbirlarning tashkilotchisi. Maktab internatida o`tkaziladigan jamoat ishlarida o`zining mehnatsevarligini namoyon etadi.

2014- yil 14-fevral oyida 11-DIMI da „yilning eng yaxshi fan o`qituvchisi" ko`rik tanlovida yuqori darajadagi „1"-o`rin agalladi.Bundan Hoshimova Xurshida samarali faoliyati uchun bir necha marta maktab ma'muriyati tomonidan taqdirlangan.

Hoshimova Xurshida bir necha noan'anaviy usulda dars tashkil etib o`z tajribasini keng ommaga namoish etgan. Maktab –internetda „ Milliy istiqlol g`oyasi va ma'naviyat asoslari" xonasida simli ,oynali modellar yasab, darsda ulardan keng foydalanmoqda.

Hoshimova Xurshida ,o`z kasbini mohir mutahasisi .11-maktab –internat ma'muriyati Hoshimova Xurshidaga yuqoridagi fikrlarniinobatga olgan holda uni kelajakda o`zining bilimi, tajribasi bilan katta hissa qo`shadi va yosh avlodni Davlatimiz Ta'lim Standarti talablari asosida tarbiyalashda hormay -tolmay mehnat qiladi, deb ishonch bildiradi.

Maktab internati direktori:

M.Ahmedova.

